

YOSHLARDA ISTE'MOL MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI

UDK: 17.022.1:008-053.81(575.1)

<https://orcid.org/0009-0002-3543-9438>

Arziqulov Elboy Azim o'g'li -

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

tel.: +998909159406

e-mail: earziqulov94@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlarda iste'mol madaniyatini shakllantirishda oilaning muhim rol o'ynashi, oila yoshlarning hayotidagi dastlabki va eng ta'sirchan muhit hisoblanishi ochib berilgan. Maqolada yoshlarda iste'mol madaniyatini shakllantirish orqali nafaqat qanday mahsulotlar iste'mol qilishni, balki, xarid qilish, ratsionni to'g'ri tanlash, moddiy boyliklarni boshqarish va mas'uliyatni anglash kabi ko'nikmalarni shakllantirishga doir taklif va tavsifalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: oila, iste'mol, madaniyat, demografiya, bandlik, xarid, nazorat, sifat, iqtisod, strategiya, axloq, yoshlar, daromad, tarbiya.

Резюме: в данной статье выявлено, что семья играет важную роль в формировании потребительской культуры у молодежи, что семья считается первой и наиболее влиятельной средой в жизни молодежи. В статье выдвигаются предложения и пояснения не только по формированию потребительской культуры у молодежи, но и по формированию таких навыков, как совершение покупок, выбор правильного рациона питания, управление материальными благами и понимание ответственности.

Ключевые слова: семья, потребление, культура, демография, занятость, покупка, контроль, качество, экономика, стратегия, этика, молодежь, доход, образование.

Resume: this article reveals the important role of the family in the formation of consumer culture in young people, and that the family is the first and most influential environment in the lives of young people. The article puts forward proposals and recommendations on how to form a consumer culture in young people, not only by choosing what products to consume, but also by forming skills such as shopping, choosing the right diet, managing material wealth, and understanding responsibility.

Keywords: family, consumption, culture, demography, employment, purchasing, control, quality, economy, strategy, ethics, youth, income, education.

Kirish. Mustaqil O'zbekistonning 33 yillik taraqqiyot yo'li tahlilidan aytish mumkinki, iqtisodiy o'sish odamlarning moddiy hayotini sezilarli darajada yaxshilab, iste'mol madaniyatini birmuncha rivojlantirdi. Ammo, muammolar ham yo'q emas. Jumladan, demografik, bandlik, uy-joy, oila iqtisodiyotiga oid muammolar shular jumlasidandir. Bularga oid xarakterli xususiyatlar uy xo'jaligidagi iste'mol, oilaning ijtimoiy-demografik tuzilishi, oila daromadi, ishlaydigan oila a'zolarining ishlaymaydigan oila a'zolariga nisbati, oilada yoshlar va bolalarning mavjudligi hamda shu kabilar bilan belgilanadi.

Iste'molchilik, asosan, oila daromadi bilan vujudga kelishi



tabiiydir. Biroq, oilalarning daromadlari bir xil emas. Demak, iste'mol qilish shakli ham turlicha. Maishiy iste'molning tabiati oilada iste'molchining ijtimoiylashuvi hamda iste'molchining xohish-istaklarini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 sentabrdagi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning huquqiy va institutsional tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5817-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi chakana savdo ob'ektlarida xalq iste'moli tovarlarining nazorat xaridini tashkillashtirish va ularni ekspertizadan (testdan) o'tkazish tartibi to'g'risida nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

- nazorat xaridi tadbirlarini o'tkazishni rejalashtirish;
- nazorat xaridini amalga oshirish tartibi;
- xalq iste'moli tovarlarini ekspertizadan (testdan) o'tkazish tartibi;
- nazorat xaridi bilan bog'liq ishlarni moliyalashtirish;
- nazorat xaridi va xalq iste'moli tovarlarini testdan o'tkazish natijalari ustidan shikoyat qilish tartibi" [1].

Oiladagi ekspressiv va instrumental rollar iste'mol amaliyotlarini o'z ichiga oladi. Asosan erkaklar iste'molning moliyaviy tomoniga, ayollar esa iste'molning sifat xususiyatiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, ko'p hollarda oilada iste'molni tashkil etish ayollar zimmasiga to'g'ri keladi. Bu asosiy boquvchi ayol bo'lgan uy xo'jaliklarida ham, erkak oilaning asosiy boquvchisi bo'lgan xonadonlarda ham sodir bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakki, yoshlarda iste'mol madaniyatini shakllantirishning boshlang'ich bo'g'ini ham oiladir.

Oilada yoshlar iste'mol qadriyatlarini bilan ma'naviy tarbiyalanadilar. Iste'mol madaniyatida tarbiya muhimdir. "Tarbiya ko'rgan bolaga uning o'z fikri, aqli rahbar. Chunki unga ota-onasi nima nega to'g'ri, nima nega noto'g'riligini yaxshilab tushuntirib qo'ygan bo'ladi. Har bir vaziyatda buni eslab, o'ylab ish tutadi"[2]. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, oila ma'naviy tarbiya yordamida yoshlarga iste'mol madaniyatini singdiradigan maskandir. Abdulla Avloniyning "tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizi



nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilar? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir"[3] degan fikrlari oradan yuz yil o'tsa

hamki o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishimiz jarayonida oilaning yoshlarda iste'mol madaniyatini shakllantirishdagi roli metodologik yondashuvlar asosida ochib berilgan bo'lib, globalashuv davrida yoshlar iste'mol madaniyatida ro'y beradigan iqtisodiy, madaniy, ma'naviy transformatsion jihatlari qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodik yondoshuvlar asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Oila sotib olish va iste'mol qilish jarayonida bir nechta rolga ega:

-tashabbuskor nazoratchi – sotib olish g'oyasini taqdim etadigan va qaror qabul qilishga hissa

qo‘shadigan ma‘lumotlarni to‘playdigan;

-ta‘sir etuvchi – ushbu turdagi tovarlarni sotib olishda fikri baholovchi sifatida ma‘lum bo‘lgan shaxs;

-qaror qabul qiluvchi – moliyaviy kuchga ega bo‘lgan yoki oilaning pullarini qanday sarflashni hal qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs;

-xaridor – xaridni amalga oshiradigan shaxs, ya‘ni do‘konga boradigan, yetkazib beruvchilarga qo‘ng‘iroq qiladigan, chek yozadigan, uyga oziq-ovqat olib keladigan shaxs;

-foydalanuvchi – mahsulot foydalanuvchisi.

Oilalar umumiy daromadi hamda demografik holatidan kelib chiqib, bir-biridan farqlanadi.

Misol uchun, oilada turli yoshdagi bolalarning mavjudligi va to‘planadigan daromadning teng taqsimlanishidan tegadigan daromad muhimdir.

Hozirgi vaqtda mavjud ro‘yxatga olinmagan (fuqarolik nikohlari) oilalardagi iste‘molchilik munosabatlari xarakterini o‘rganish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Oilalarning ijtimoiy hayot kechirishidagi o‘rniga qarab, ularning oilaviy iste‘molini turlicha tahlil va talqin qilish mumkin. Shuningdek, iste‘mol sababli yuz bergan oilaviy nizolarni o‘rganish ham dolzarb masala hisoblanadi. Jumladan, “...bugungi kunda aholi ehtiyojlarining oshishi va iste‘mol hajmining kengayishi, iste‘molchilar xulq-atvoridagi zamonaviy intilishlarni inobatga olgan



holda iste‘mol madaniyatining asosiy tamoyillari, shakllari va usullarini ishlab chiqishni, ikkinchidan, aholi iste‘mol madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish bilan bog‘liq bo‘lgan prinsipial muammolarni o‘rganish doimiy amaliy xarakterga ega bo‘lgan vazifalar, ya‘ni bu boradagi faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan usul va vositalarni ishlab chiqish zarurati bilan bog‘liq ekanligini ko‘ramiz”[4].

“Ota-ona farzandlarining ko‘z o‘ngida hadeb televizor ko‘rib o‘tiravermay, kitob o‘qib tursa, bolalar ham kitobxon bo‘ladi. Ularga qilinadigan sovg‘alar ichida ham albatta kitob, daftar-qalamlar bo‘lishi kerak. Ularni o‘zlari uchun kiyim tanlashga o‘rgatganimiz kabi kitob olishga ham o‘rgatishimiz darkor. To‘y-ma‘raka, bordi-keldilarga qunt qilganimiz kabi bolalarga ham kitob xususida va‘dalar berib, ularni amalga oshirishimiz kerak. Ota-ona har kuni ma‘lum paytda oila davrasida kitob o‘qishni yo‘lga qo‘yishi lozim. Bolalarga o‘qishi kerak bo‘lgan kitoblarni tayinlab berib, keyin undan imtihon olib, kundaligiga baho qo‘yib, muvaffaqiyatlari bilan qutlab, sovg‘alar ulashish juda ham muhim”[5]. Yuqoridagi fikrdagi televizor so‘zini bugungi kunda uyali aloqa, gadjet so‘ziga almashtirish mumkin.

Har bir zamonaviy jamiyat o‘z iste‘molida o‘ziga xos madaniy bosqichdan o‘tadi. Biz xarajatlarimizni to‘g‘ri rejalashtirishni, o‘ylangan xaridlarni amalga oshirishni va reklama bozori bizga taqdim etayotgan hamma narsani o‘zimiz uchun formatlashni o‘rgandik. Bu ko‘rsatkichlar hali juda yuqori bo‘lmasa-da, rivojlanish tendensiyasi mavjud.

Xulosa va takliflar. Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, yoshlarning iste‘mol madaniyatiga oila va ijtimoiy muhit katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bu ta‘sirlar ularning iste‘mol haqidagi tushunchalarini, moddiy ne‘matlarga qo‘yadigan qiymatini va iste‘mol madaniyatida ishtirok etishga umumiy yondashuvini shakllantirishga yordam beradi. Bu borada ota-onalarda mas‘uliyat hissini oshirish

va yoshlarda iste'mol madaniyatini shakllantirishga doir quyidagi taklif va tavsfiyalarni ilgari surmoqdamiz:

1. Ota-ona farzandlariga namuna bo'lgan holda oladigan doimiy oylik maoshlarini rejali taqsimlashi va uni sarflashi;
2. Muhim zarurat tug'ilmaganda tovar va maxsulotlarni behuda xarid qilmasligi;
3. Dunyo ne'matlari ortidan quvib, oiladagi o'rnini unutmashligi;
4. Halol kasb bilan shug'ullanib uning ortidan farzandlarini boqishi;
5. Qonunan taqiqlangan hamda din talabida qoralangan ishlardan tiyilmog'i;
6. Oziq-ovqat hamda boshqa turdagi mahsulotlarini isrofgarchilik bilan sarf qilmasligi;
7. Tabiat ne'matlarini qadrlab, bo'sh ekin maydonlariga mevali va manzarali ko'chatlarni, poliz ekinlarini farzandlari bilan birgalikda ekib namuna ko'rsatishi o'ylaymizki yoshlarda iste'mol madaniyatini shakllanisha qisman bo'lsa ham turtki bo'ladi.

BIBLIOGRAFIYA:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.02.2021-yildagi 59-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5272426>
2. Quronov M. Jinoyatchilikga qarshi ijtimoiy profilaktikaning ilmiy-amaliy masalalari. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi va ma'naviy-marifiy ishlarning natijadorligi: muammo va yechimlar. Ilmiy amaliy konfrensiya materyallari to'plami. Farg'ona- 2018,- B.13.
3. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com. -B.7.
4. Xaydarov A.N. O'zbekistonda aholi iste'mol madaniyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari: Fals. fan. bo'y. fals. dok (PhD)... dis. avtoref. – Samarqand, 2021.-B.18.
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/islomga-baxshida-umr-shayx-muhammad-sodiq-muhammad-yusuf-kitob-oqish-haqida.html>.